



MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARNI RIVOJLANISHIDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDAN FOYDALANISH

Abdug'opirova Feruza Akramjon qizi

University of Business and Sciens

nodavlat oliy ta'lim muassasasi katta o'qituvchisi

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi. Sh.M.Mirziyoyev

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim uzliksiz ta'limning boshlang'ich bo'g'ini va eng muhim mas'uliyatli bola tarbiyasi, ta'lim olishi poydevori asoslari shakllanadigan bosqich ekanligi va ushbu jarayonni amalga oshirishda sharq mutafakkirlari, ularning ijod namunalariidan foydalanishning bola rivojlanishidagi o'rni, ma'naviy dunyoqarashni shakllantirish omillari haqida fikr yoritilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, tizim, usul, ma'naviy, axloq, odob, asar, ta'lim, tarbiya, rivojlanish, natija, munosabat.

Bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim sohasida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash sohasida tub o'zlashtirishlar amalga oshirmoqda. Maktabgacha ta'lim sohasida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev faol tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan ishlar, qabul qilinayotgan farmon va qarorlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimiz tomonidan "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2707-sonli qaror (2016- yil 29-dekabr), "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari" PF-5198-sonli farmon (2017 yil 30-sentabr), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" gi 528-sonli Qarori (2017-yil 19-iyul), "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi" kabi rasmiy hujjatlarning qabul qilinishi maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda alohida o'rin egallamoqda.

Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni, xalqning boy milliy, madaniy, tarixiy, me'rosi va ma'naviy-axloqiy, an'analari ruhida tarbiyalash bolalarda milliy vatanparvarlik hislarini shakllantirish va ularga ta'lim tarbiya berishda buyuk



mutafakkirlarimizning asarlaridan foydalanish maktabgacha ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tarbiya ta'limdan ustun turadi. Zero, insonni tarbiya voyaga yetkazadi.

Qadimdan o'zbek sharq mutafakkirlari ijodida bolaning rivojlanishida odob-axloq masalasi markaziy o'rinni egallab kelgan. Kaykovusning "Qobusnoma" sidan tartib, Al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu-Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning nazmiy va nasriy asarlarida, Yusuf Xos Hojibnong "Qutatg'u bilik" ("Baxt keltiruvchi bilim"), Ahmad Yugnakiyning "Hibbatul haqoyiq" ("Haqiqat sovg'alari") imom Ismoil Al Beruniyning "Al-Adab Al-Mufrad" (Adab durdonalari) kabi jahonga mashhur asarlarida Alisher Navoiyning o'lmas she'riyatida Munis, Xorazmiyning "Zavodi ta'limiyda", Kamoliddin Husayn Voiz Koshiyning "Axloqi Muxsimiy", "Ravzati shaxodat (Shaxodat bog'i)" kabi asarlarida axloq, odob masalalari yoritilgan.

O'zbek xalqi o'zining uzoq tarixi davomida yaratib ta'lim tarbiyaga oid boy me'rosga ega. Bundan tashqari avlodlarda insonparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik do'stlik, iymon -e'tiqod, mehr-oqibat, odoblilik kabi umuminsoniy fazilatlarni shakllantirishning o'ziga xos tajribasini to'plagan. Bizga ma'lumki, ma'naviy-axloqiy fazilatlar hech qachon o'z – o'zidan vujudga kelmaydi, balki ularning chiqishining haqiqiy manbai, ularni keltirib chiqqan sabablar va harakatlarga keltiradigan kuchlar mavjuddir. Zero har qanday axloqiy qoidalar muayyan tarixiy zaruriyat natijalarida vujudga keladi va muayyan qonuniyat asosida rivojlanib boradi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki. Sharq mutafakkirlarining ta'lim – tarbiyaga oid qarashlari bu tajribaning shakllanishiga ulkan ta'sir ko'rsatgan. Sharq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan qarashlar hamda g'oyalar bugungi kunda ham muhim ta'lim tarbiyaviy manba sifatida yoshlar ongi va qalbiga ma'naviy ozuqa berib kelmoqda.

Darhaqiqat ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan bebaho madaniy meros milliy ma'naviyatimizning o'zagini aks etadi. Shu sababli undan buyon yoshlarimizning ta'lim -tarbiyasiga keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki ajdodlarimizdan qolgan me'rosmillatimizning nafaqat o'tmishi, shuningdek, istiqboli uchun ham kuch va fidoyilik manbai hisoblanadi.

Kaykovus 44 bobdan iborat bo'lgan "Qobusnoma" asarida ota-onalarning farzand tarbiyasidagi vazifa va burchlari, farzandning ota-onalar munosabati ularni qadrlash, insonlar orasidagi muomala odobi ularning o'zaro axloqiy munosabatlari haqorat, qo'pollik kabi yomon odatlardan saklanish zaruriyati bilan bir qatorda bola



tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratish uning kelajagi uchun ota-onaning mas'uliyati katta ekanligi kabi axloqiy masalalarga urg'u beriladi.

Mir Alisher Navoiy bobomizning fikricha bolani rivojlanishida kamol topishida tarbiyaning kuch va qudratiga alohida e'tibor berish kerak. Yaxshi tarbiya natijasida bola foydali va yetuk kishi bo'lib yetishadi. Yosh bolaning juda kichik yoshidan tarbiyalamoq lozim. Tarbiya insonga o'zida yaxshi odat va fazilatlar hosil qilishga yordam beradi. U odam yaxshi kishilar bilan munosabatda ayniqsa kishilarning bir-biriga bo'lgan ruhiy ma'naviy ta'sirlari natijasida tarkib topadi deb voyaga yetkazishda asosiy omillardan biri tarbiyadir deb uqtiradi.

Abu Rayxon Beruniy esa insoniyat tarixida birinchilardan bo'lib bolalarni kichik yoshidan mehnat qilishga o'rgata borish, oilaning diqqat markazida bo'lishi kerakligi haqida o'z asarlarida fikr bildirgan. Alloma oilada boshlagan mehnati tarbiyasini maktabda ta'lim bilan birga hunar o'rgatishga bog'lab davom ettirish lozimligini alohida ta'kidlagan. Ulug' mutafakkir mehnat va kasb-hunar vorislik asosida avloddan-avlodga meros bo'lib o'tishini sinchkovlik bilan o'rgangan va insonlarning hunarmandchilik faoliyatlarini yuqori baholagan.

Mahmud Qoshg'ariy "Devoni lug'ati turk" asarida ilmli. Aqilli odamlarga yaxshilik qilib so'zlarini tingla. Ilmlarni hunarlarni o'rganib amalga oshir deydi. Allomning ushbu fikri kishilarni mehnat qilishga yaxshilikka undaydi, yomonlikni qoralaydi. Ilm va hunar sohiblarini e'zozlab kishilarni ilardan ibrat olishga chaqiradi.

Sharq mutafakkirlarining ijodiy faoliyatidagi ta'lim va tarbiyaga oid yondashuvlar, g'oyalar, qarashlarni yosh avlodning ongida singdirishda tarbiya usullari va vositalarini bilish, hayotda ulardan to'g'ri foydalanish ta'lim jarayonida o'qituvchilarning pedagogik mahoratidagi muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Ta'lim -tarbiya tizimini insonparvarlik yo'nalishini tubdan o'zgartirish va yangi zamon talablari darajasiga ko'tarishining 1-sharti unga bir butun tizim sifatida yondashish va shunga muvofiq, ish olib borishdan iboratdir. Yosh avlodda yuksak ma'naviyat fazilatlarini kamol toptirish milliy mafkurani shakllantirish, boy madaniy merosimiz tarixiy an'analimizga umuminsoniy qadriyatlarga hurman vatanga muhabbat istiqloq g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalaash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohatlarning hal qiluvchi omilidir. Insonlar o'zligini chuqur anglashi mustaqillikning qadrini tobora teran tushunishi milliy tafakkurning kengayishi va takomillashuvi tarixiy hurlik mustaqillik ruhining uyg'onishini ta'minlash ma'naviyat sohasidagi siyosatimizning asosiy maqsadiga aylandi.

Taniqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy "Tarbiya biz uchun yo hayot -yo mamot, yo najot- yo halokat yo sadoqat-yo falokat masalasidir" deb yozgan edi.



Masxoyiqlarning aytishicha “Har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog‘liqdur”

Prezident Sh.Mirziyoyev yoshlar tarbiyasiga alohida to‘xtalib: “Bolalarimizni bironing qo‘liga berib qo‘ymasdan ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko‘proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko‘mak berishimiz kerak. Bu vaziyatlarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an‘analarimizga, ajdodlarimizning boy me‘rosiga tayanamiz. Biz ta‘lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatlarini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz.”

Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana shu fikrlariga har bir yosh-avlod amal qilishlarini istardim.

Ulug‘ ajdodimiz shunday yozganlar: “Xalqning aniq bir maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo‘lishi yoki zaif bo‘lib xo‘rlikka tushishi, baxtsizlik, yukini tortishi, e‘tibordan qolib, o‘zgalarga tobe va qul, asir bo‘lishi ularning o‘z ota-onalaridan bolalikdan olgan tarbiyalariga bog‘liq” deya ta‘kidlab o‘tdi.

Ajdodlarimiz o‘z asarlarida yoshlarni kasbga yo‘naltirishning ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy-axloqiy, pedagogik-psixologik jihatlariga ota-ona, maktabgacha ta‘lim, maktabning roli, kasb tanlashda yosh avlodning, hayot, mehnat yo‘lini mustaqil tanlashiga alohida e‘tibor bilan qarashgan. Bolani hunarga yo‘llashda, uning qiziqish moyilligi qobiliyatini o‘rganish, bunday holatda ularning onhlilik, izchillik va vorisilik yosh va individual xususiyatlarininhisobga olish zarurligini qayd etgan.

Ma‘naviy meroslarning moddiy qadriyatlar bilan hamohang rivojlanishini juda ko‘p mutafakkirlarning, donishmandlarning tarixiy va adabiy asarlarida yuksak maxorat – la bitilgan hamda jahonning madaniyat xazinasiga abadiy hissa bo‘lib qo‘shilgan.

Xulosa qilib aytganda: Maktabgacha ta‘lim yoshdagi bolalarning rivojlanishida buyuk siymolarimizning qoldirgan bebaho madaniy, ma‘rifiy me‘rosi ular uchun ibrat namuna ekanligi ularning ta‘lim-tarbiyaga oid ma‘rifiy ta‘limotlari Ona vatanga, millatga sadoqat va hurmat ruhida tarbiyalashda ularda milliy g‘urur va vatanparvarlik hislarini shakllantirishda adob-axloqli, oqil va odil inson qilib tarbiyalashda o‘zligini anglashda asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Sh.Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi ma‘ruzasi 2016-yil
2. 2016- yil 29-dekabrdagi “2017-2021 yillarda maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 2707-sonli qarori
3. 2017 yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta‘lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari” PF-5198-sonli farmoni
4. 2017-yil 19-iyuldagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta‘lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida” gi 528-sonli Qarori
5. D.Q.Asqarova “Bolalarni maktab ta‘limiga tayyorlash metodikasi” O‘quv qo‘llanma 2020-yil
6. F.Yusupova “Maktabgacha tarbiya pedagogikasi” 1999-yil